

12 mavzu: Chinni xamir (loy va plastilin) bilan ishlash texnologiyasi.

Reja:

1. Chinni xamirni tayyorlash usullari.
2. Chinni xamirdan tirli o'yinchoqlar tayyorlash usullari.

1. Chinni xamirni tayyorlash usullari.

Loy shirali va shirasiz bo`ladi. Shirasiz loy tarkibida qum ko`p bo`lib, unda yopishqoqlik xususiyati yomon bo`ladi. Loy va plastilin ham turli narsalar yasash uchun juda qulay bo`lib, ayrim xususiyatlariga ko`ra, bir-biridan ajralib turadi. Masalan plastilin rangba-rangligi va doimo ishga tayyor holda ekanligi bilan ajralib turadi. Lekin asosiy kamchilik shundaki, plastilin issiqda tez erib ketadi va o`zining qayishqoqlik xususiyatini yo`qotadi. Bundan tashqari plastilindan ishlangan haykalchalarni ochiq joyda saqlash juda qiyin. Undan asosan kichik modellarni yasashda foydalaniladi. U sun`iy plastik massa bo`lib, loydan hech qachon qurimasligi bilan farqlanadi. Plastilin har-xil oddiy va murakkab turlari bo`lib, uning bir necha tayyorlash usullari mavjud.

Birinchi variant – toza quyuc loyga glitserin qo`shib bir xil massa hosil qilguncha aralashtiriladi. Glitserin tayyorlanayotgan massa qo`lga yopishmaydigan holatga kelguncha qo`shiladi.



Ikkinchi variant - quritilgan toza loy mayda qilib tuyuladi va unga vazelin qushib, qulga yopishmaydigan quyuc massa hosil bo`lguncha aralashtiriladi. Plastilinga kerakli rangdagi quruq buyoq massasi qushib va puxta aralashtirib buyash mumkin.



Uchinchi variant- 1 qism tuprog`ida 1/5 qism ilitilgan mum hamda plastilin qulga yopishmaydigan darajaga etguncha glitserin qushib aralashtiriladi.





2. Chinni xamirdan tirli o'yinchoqlar tayyorlash usullari

Loy va plastilin bilan ishlash mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishda ish joyini beka mu-kos't jihozlanganligi muhim ahamiyatga egadir.


Plastilin va loydan narsalar yasashni u yaxshilab qulda ezilgandan keyin boshlash kerak. Plastilin va loydan tashqari narsalar yasashda mumdan foydalaniladi. Mumning tabiiy va su'niy (neftdan olingan) turlari mavjud. Mum ancha qimmat turadi va undan mayda narsalar yasaladi. Mum bilan ishlash qulay, u qurimaydi, suv bilan namlanishni talab qilmaydi, darz ketmaydi va undan yasaladigan narsalar uzoq saqlanadi. Mehnat mashg'ulotlari uchun magazinlarda ochdan to to`q rangacha bo`lgan rangli mum tayoqchalari sotiladi.

Loy va plastilin bilan ishlashda kerak bo`ladigan usullar.

1. Yumaloqlik – bu parcha loydan shar yasash, unga olcha, olma kabilar shakllini berishdir.
2. Bir bo`lak loydan kaftda aylana harakatlar bilan shar yasaladi.
3. Shar yasash, so`ngra uzunasiga harakatlar bilan uni tuxum, ustun kabilarga aylantirish.
4. Yassilash – sharikdan yassi non yasaladi, qulning holati doimo o`zgarib turadi.
5. Chuzish – sharikning bir qismi chuziladi.
6. Surish (yamash) buyumning ayrim qismlarini o`zaro biriktirish.



Loy bilan ishlaganda asosan oddiy asboblari, pichoq, oddiy konstruksiyadagi yog`och va metall uchli steklardan foydalaniladi. Plastilin va mum bilan ishlaganda metall steklardan foydalaniladi. Ularni qizitish hamda yo`g`on mis, alyumin yoki temir simdan tayyorlash mumkin. Tsirkul, o`lchov, chizg`ich va burchaklar kabi o`lchov asboblari modellarni chizish va o`lchash ishlarida kerak bo`ladi. Tayyor narsalardagi changlarni yo`qotish, loy narsalarni supurib tashlash, narsani solish va unga narsalar surtish jarayonida har – xil mo`yqalamlar bo`lishi maqsadga muvofiqdir.









Nazorat uchun savollar

1. Mashgulotlarda plastilin bilan ishlashning ahamiyati qanday?
2. Plastilinni qanday usulda tayyorladingiz?
3. Plastilin xususiyatini loydan farqi?
4. Plastilindan nimalar yasash mumkin?
5. Loydan nimalar yasash mumkin?
6. Plastilinni qanday turlarini bilasiz?
6. Ularning tarkibi va rangi bir xilmi?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 488 b.
2. Yusupova P. Maktabgasha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvshi. 1993.
3. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgasha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.
4. Sodiqova Sh.A. Maktabgasha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013
5. N.Kayumova. Maktabgasha pedagogika. T.: TDPU 2013.
6. Nurmatova M.SH. Xasanova SH.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. "Sho'lpon" T.:2010y.
7. Nurmatova M.SH. Xasanova SH.T. D.Azimova. Ustahonada amaliy mashg'ulot. "Musiqqa" T.:2010y.